

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM
TASHKILOTLARI TARIX FANI O‘QITUVCHILARINI
ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MALAKA SINOVIDA
FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI**

SPETSIFIKATSIYASI

Toshkent – 2026

**UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM
TASHKILOTLARI TARIX FANI O‘QITUVCHILARINI
ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MALAKA SINOVIDA
FOYDALANILADIGAN TEST TOPSHIRIQLARI**

SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari tarix fani o‘qituvchilarini attestatsiyadan o‘tkazish malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonini va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning tarix fani, kasb standartlari va pedagogik mahorat bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asosli bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-79-son farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 692-son qarori.

III. Baholash qamrovi

Tarix fani o‘qituvchilari uchun mutaxassislik fanidan 35 ta, kasb

standartlaridan 5 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig‘i taqdim etiladi va umumiy test topshirig‘ini bajarish uchun 90 daqiqa vaqt berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to‘g‘ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari(Y1)*, *moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari(Y2)* va *ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3)*) foydalaniladi. Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Mutaxassislik fanlaridan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalari bo‘yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. O‘zbekiston tarixi		18 ta
1.1. O‘zbekiston tarixining qadimgi davri (1–2-savollar)		
O‘zbekiston tarixining qadimgi davri	– qadimgi insonlar yashagan davr, ularning turmush tarzi, diniy e‘tiqodlari va faoliyati haqidagi ma’lumotlarni topish; – O‘zbekiston hududida yashagan qadimgi elatlar va ularning davlat tuzilmalarini (shaharlarini), shuningdek, antik madaniyatning O‘rta Osiyoga kirib kelishi bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarni aniqlay olish; – Buyuk Ipak yo‘lining shakllanishi va rivojlanishi xususiyatlarini aniqlay olish; – mil.avv. I mingyillikda vujudga kelgan yangi dinni aniqlay olish; – davlatlar va hukmdorlarning O‘rta Osiyoga kirib kelishi, ushbu jarayon natijasida ro‘y bergan hodisalarni aniqlash, tahlil qilish va baholash; – mil.avv. IV asr – milodiy III asrlarda mavjud bo‘lgan davlatlarga doir ma’lumotlarni topish, taqqoslash va umumlashtirish; – tarixiy voqea(ma’lumot), davlat, shahar va savdo yo‘llarining geografik joylashuvini xarita asosida aniqlay olish; – sabab-oqibat va jarayonlar ketma-ketligini tushunish.	2
1.2. O‘zbekiston tarixining IV–XIII asrlar davri (3–5-savollar)		

O‘zbekiston tarixining IV–XIII asrlar davri	– IV–XIII asrlarga oid tarixiy voqea va jarayonlarni xronologik ketma-ketlikda aniqlash; – davlatlarning boshqaruv tizimi, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini taqqoslash hamda tahlil qilish; – yer egaligi munosabatlari, ijtimoiy tabaqalar, hunarmandchilik, savdo va shaharlar rivojini farqlash; – mintaqada islom dinining yoyilish sabablari, bosqichlari va tarixiy oqibatlarini tahlil qilish; – davlatlarning tashkil topishi, yuksalishi va inqiroziga ta’sir etgan ichki hamda tashqi omillarni aniqlash; – hukmdorlar, tarixiy shaxslar va ilm-fan namoyandalarining faoliyati hamda tarixiy jarayonlardagi o‘rmini tahlil qilish; – davlatlarning hududi, chegaralari, siyosiy markazlari va savdo yo‘llarini tarixiy xarita asosida aniqlash; – tarixiy voqea va jarayonlar o‘rtasidagi sabab-oqibat, uzviylik va o‘zgarishlarni aniqlash.	3
1.3.O‘zbekiston tarixining XIII–XV asrlar davri (6–8-savollar)		
O‘zbekiston tarixining XIII–XV asrlar davri	– davlatlar va hukmdorlarning siyosiy faoliyati, boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, tashqi siyosati hamda madaniy taraqqiyotini aniqlash, taqqoslash va tahlil qilish; – davlatlarning tashkil topishi, yuksalishi va inqiroziga ta’sir etgan omillarni aniqlash; – tarixiy shaxslar va ilm-fan namoyandalarining faoliyati hamda tarixiy ahamiyatini baholash; – tarixiy-me’moriy obidalar va ilmiy-adabiy asarlarni yaratilgan davri, muallifi va ahamiyati bilan bog‘lash; – tarixiy voqea va jarayonlar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini tahlil qilish; – davlatlar hududi, chegaralari, siyosiy markazlari va tarixiy joy nomlarini xarita asosida aniqlash; – tarixiy voqealarning sodir bo‘lish davri va xronologik izchilligini aniqlash, ularni o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilish hamda tarixiy ahamiyatini baholash; – tarixiy manbalardagi ma’lumotlarni taqqoslash va ular asosida xulosa chiqarish.	3
1.4.O‘zbekiston tarixining XVI–XIX asrlar davri (9–11-savollar)		

O‘zbekiston tarixining XVI– XIX asrlar davri	– O‘rta Osiyodagi davlatlar – Buxoro xonligi (keyinchalik Buxoro amirligi), Xiva va Qo‘qon xonliklarining tashkil topishi, rivojlanish bosqichlari hamda ulardagi sulolalar almashinuvi jarayonlarini aniqlash; – davlat hukmdorlari va tarixiy shaxslar bilan bog‘liq ma’lumotlarni topish, ularning faoliyatini aniqlash, tahlil qilish; – har bir davlatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayoti va tashqi siyosatining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, tahlil qilish; –ushbu davlatlarning madaniy hayotiga xos xususiyatlarni aniqlash, tahlil qilish; – tarixiy voqea-hodisalar, shaxslar va davlatlar bilan bog‘liq ma’lumotlarni xarita asosida aniqlash, tahlil qilish va xulosalash.	3
1.5.O‘zbekiston tarixining XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning 90-yillari (12–14-savollar)		

O‘zbekiston tarixining XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning 90- yillari	– O‘zbekiston tarixining murakkab davrida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy jarayonlarni aniqlash; – mazkur davrda yuzaga kelgan siyosiy o‘zgarishlar, ijtimoiy tabaqalanish, iqtisodiy inqiroz va islohotlar jarayonini aniqlash; – o‘zbek xalqining mustamlakachilarga qarshi qaratilgan xalq harakatlari, ularning yo‘lboshchisiga oid ma’lumotlarni topish va tahlil qilish; – Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarining Rossiya imperiyasiga qaram bo‘lib qolishi va tugatilishiga olib kelgan omillarni hamda bu jarayonlarning mintqa hayotiga ta’sirini tahlil qilish va baholash; – O‘zbekiston va Markaziy Osiyoda amalga oshirilgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda mafkuraviy siyosatning asosiy yo‘nalishlari va oqibatlarini tarixiy dalillar asosida tahlil qilish va baholash; – davlatlar, ma’muriy-hududiy o‘zgarishlar va tarixiy voqealar sodir bo‘lgan joylarni xarita asosida aniqlash hamda voqealarning xronologik izchilligini belgilash; – jadidchilik harakatining ma’rifiy va siyosiy faoliyatini, uning ayrim namoyandalarining davlat boshqaruvidagi o‘rni hamda tarixiy ahamiyatini tahlil qilish; – tarixiy ma’lumotlarni davri, mazmuni va manbasiga ko‘ra farqlash, ularni muayyan vaziyatlarga mos ravishda qo‘llash va asoslangan xulosa chiqarish.	3
1.6.O‘zbekiston tarixining mustaqillik davri (15–18-savollar)		

O‘zbekiston tarixining mustaqillik davri	– O‘zbekistonning davlat mustaqilligiga erishish jarayoni, unga olib kelgan tarixiy voqealar hamda mustaqillikning dastlabki bosqichlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarni aniqlash va tahlil qilish; – O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati tizimining shakllanishi va rivojlanishi, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ko‘ppartiyaviylik tizimining vujudga kelishi va faoliyatini tahlil qilish; – O‘zbekiston Respublikasining xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekt sifatidagi faoliyati, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan hamkorlik yo‘nalishlarini aniqlash va baholash; – mamlakatni rivojlantirishning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, harbiy va madaniy yo‘nalishlarida amalga oshirilgan islohotlar hamda chora-tadbirlarni aniqlash; – mustaqillik davrida amalga oshirilgan islohotlarning natijalari, tarixiy ahamiyati va jamiyat taraqqiyotiga ta’sirini tahlil qilish va baholash; – mustaqillik davriga oid tarixiy voqealarning xronologik izchilligini aniqlash, ularni tegishli davr va islohot bosqichlari bilan bog‘lash; – tarixiy hujjatlar, statistik ma’lumotlar va boshqa manbalar asosida mustaqillik davridagi jarayonlar yuzasidan asoslangan xulosa chiqarish.	4
2. Jahon tarixi		17 ta
2.1. Qadimgi dunyo tarixi (19–20-savollar)		

Qadimgi dunyo tarixi	– qadimgi Sharq va antik dunyo sivilizatsiyalarining shakllanishi, rivojlanishi, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy xususiyatlarini aniqlash, taqqoslash va tahlil qilish; – qadimgi davlatlarning tashkil topishi, yuksalishi va inqiroziga ta'sir etgan omillarni hamda ular o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy aloqalarni baholash; – tarixiy voqea va jarayonlarning xronologik izchilligi, sabab-oqibat bog'lanishi hamda tarixiy ahamiyatini aniqlash; – qadimgi davlatlar hududi, poytaxtlari, savdo yo'llari va harbiy yurishlarini xarita asosida aniqlash; – hukmdorlar va tarixiy shaxslar faoliyatini tegishli davlat va davr bilan bog'lash; – qadimgi sivilizatsiyalarning ilm-fan, huquq, din, yozuv, me'morchilik va san'at sohalaridagi yutuqlarini hamda ellinistik madaniyatning Sharq xalqlariga ta'sirini tahlil qilish; – tarixiy manbalardagi ma'lumotlarni taqqoslash va ular asosida xulosa chiqarish.	2
2.2. Jahon tarixining o'rta asrlar davri (V–XIII asrlar) (21–23-savollar)		
Jahon tarixining o'rta asrlar davri	– V–XIII asrlarda Yevropa, Osiyo, Afrika va Amerika hududlaridagi davlatlar hamda xalqlarning siyosiy tuzumi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti va madaniy	3

(V–XIII asrlar)	taraqqiyotiga xos xususiyatlarni aniqlash, taqqoslash va tahlil qilish; – oʻrta asr davlatlarining tashkil topishi, rivojlanishi va inqiroziga taʼsir etgan ichki hamda tashqi omillarni aniqlash; – Yevropa va Osiyoning ayrim hududlarida shakllangan yer egaligi, ijtimoiy tabaqalanish va qaramlik munosabatlarini farqlash hamda ularning oʻziga xos jihatlarini tahlil qilish; – shaharlar, hunarmandchilik, savdo-sotiq va xalqaro savdo yoʻllarining iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyotdagi oʻrnini baholash; – hukmdorlar va tarixiy shaxslarning ichki hamda tashqi siyosati, harbiy yurishlari va madaniy faoliyatini tegishli davlat va tarixiy jarayonlar bilan bogʻlash; – tarixiy voqea va jarayonlarning xronologik izchilligi, sabab-oqibat bogʻlanishlari hamda tarixiy ahamiyatini aniqlash; – davlatlarning hududi, siyosiy markazlari, savdo yoʻllari, harbiy yurishlari va hududiy oʻzgarishlarini tarixiy xarita asosida aniqlash; – turli mintaqalar taraqqiyotidagi umumiy va oʻziga xos jihatlarini tarixiy maʼlumotlar asosida taqqoslash hamda xulosa chiqarish.	
2.3. Jahon tarixining oʻrta asrlar davri XIII–XV asrlar (24–27-savollar)		
Jahon tarixining oʻrta asrlar davri XIII–XV asrlar	– XIII–XV asrlarda Yevropa davlatlari, shuningdek Osiyo, Afrika va Amerika xalqlarining boshqaruv tizimi, iqtisodiy faoliyati va madaniy hayoti haqidagi tarixiy maʼlumotlarni topish, farqlay olish; – turli mintaqalardagi davlatlar, siyosiy tuzumi, shaharlar rivoji va ijtimoiy tuzumini farqlarini topish, tahlil qilish; – jahon xalqlari va Oʻrta Osiyo ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonlaridagi oʻxshash va farqli tomonlarini tahlil qilish, sabab va oqibatlarni baholash; – xarita asosida maʼlumotlarni topish va tarixiy voqea-hodisalarning sababi, natijasi, ahamiyatini tahlil qilish; – Yevropa qirollari va boshqa mintaqalar hukmdorlarining faoliyatini aniqlash, tahlil qilish.	4
2.4. Jahon tarixining yangi davri (XVI–XX asr boshlari) (28–30-savollar)		

Jahon tarixining yangi davri (XVI-XX asr boshlari)	– Yevropada yangi davr boshlanishi hamda XVI–XX asrlarda Yevropa, Amerika, Osiyo va Afrika mamlakatlarining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohasi bilan bog‘liq ma’lumotlarni topish, tahlil qilish; – xarita asosida tarixiy ma’lumotlarni aniqlash; – tarixiy ma’lumotlarni bilish, farqlash, tahlil qilish va xronologik ketma-ketlikda to‘g‘ri joylashtira olish; –davlat rahbarlari bilan bog‘liq ma’lumotlarni tarixiy manbalar asosida tahlil qilish, o‘zgarishlarni solishtirish, sabab-oqibatlarini baholash.	3
2.5. Jahonning eng yangi tarixi (XX–XXI asrlar) (31–35-savollar)		
Jahonning eng yangi tarixi (XX–XXI asrlar)	– 1918-yildan hozirgi kungacha bo‘lgan tarixiy taraqqiyotning birinchi (1918–1945), ikkinchi (1945–1991) va uchinchi (1991-yildan hozirgi kungacha) bosqichlariga xos siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy jarayonlarni topish; – 1918-yildan keyingi tarixiy jarayonlarni siyosiy tuzumlar, iqtisodiy modellar va madaniy o‘zgarishlar nuqtayi nazaridan tarixiy manbalar, xaritalar hamda statistik ma’lumotlar asosida aniqlash, taqqoslash va tahlil qilish; – davlatlarning siyosiy tuzumlari, hokimiyatning shakllanishi va almashinuvi, ushbu jarayonlar natijasida yuzaga kelgan voqealar hamda global muammolarning sabablari va oqibatlarini aniqlash va tahlil qilish; – muhim tarixiy ma’lumotlarni bilish, farqlash va tahlil qilish; – xarita asosida tarixiy ma’lumotlarni aniqlash; – uch tarixiy bosqichda yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni o‘zaro taqqoslash, ularning sabab-oqibat bog‘lanishlarini tahlil qilish hamda global miqyosdagi ta’siri va tarixiy ahamiyatini baholash.	5
Jami:		35

**Kasb standartlari va pedagogik mahoratdan tuziladigan test
topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari
bo'yicha taqsimoti**

2-jadval

1. KASB STANDARTI (36 – 40-savollar)		5
1.1. Kasbiy standartlar	– pedagogning kasbiy standartlari (o'quv jarayonini rejalashtirish, ta'lim samaradorligini ta'minlash, o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish, hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik qilish)ni bilish va pedagogik vaziyatlarda qo'llay olish.	5
2. PEDAGOGIK MAHORAT (41 – 50-savollar)		10

2.1. Umumiy pedagogika	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asoslari va yondashuvlarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogikaning tamoyillari (onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlilik, ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi va boshqalar)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – tarbiya va uning turlarini bilish, bir-biridan farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – dars va uning turlarini bilish, darsni rejalashtirish, tashkil etish va sinfni boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatlarda qo'llay olish; – sinf rahbarining huquq va majburiyatlarini bilish, sinf hujjatlari bilan ishlay olish, ularni yuritishda to'g'ri ketma-ketlikka amal qilish, sinf jamoasini to'g'ri shakllantirish, muloqotda pedagogik etika qoidalariga amal qilish, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tanlash, muammoli vaziyatda eng maqbul strategik yondashuvni qo'llash; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o'sish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, perspektiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo'llay olish, – ta'lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim, hamkorlikdagi ta'lim, evristik ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol ta'lim, differensial ta'lim, integral ta'lim, o'yinli ta'lim, inklyuziv ta'lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish; – ta'limda baholashning asosiy tushunchalari (baholash maqsadi, tamoyillari, yondashuvlari, baholash turlari (formativ, diagnostik, summativ baholash), metod va texnologiyalari, vositalari)ni bilish, berilgan vaziyatga mosini tanlash va baholash bo'yicha qabul qilingan qarorlarning berilgan vaziyatda mosligiga baho berish; – raqamli savodxonlik, sun'iy intellekt, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli platformalar (emaktab.uz va boshqalar) va resurslaridan (Microsoft Office dasturlari, internet tarmog'idan) foydalanishni bilishi.	7
--------------------------------------	---	----------

2.2. Tarixni o'qitish metodikasi	– fan mazmun sohasini o'qitish yondashuvlari, metodikasi va texnologiyalarini bilish; – fan sohasini o'qitish usullari va metodlarini farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlash; – fan sohasini o'qitish bo'yicha berilgan ta'limiy vaziyatga oid qabul qilingan qarorlarga baho berish.	3
Jami:		15 ta

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanilishini tushunish	8 ta
2	Qo'llash	Bilim, tushuncha va jarayonlarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish	35 ta
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	7 ta

IV. Baholash mezonlari

Test topshiruvchining umumiy natijasi har bir test topshirig'iga berilgan ballar yig'indisi asosida aniqlanadi. Har bir to'g'ri javob uchun **2 ball**, noto'g'ri javob uchun **ball** berilmaydi. Test sinovining eng yuqori natijasi 100 ballni tashkil etadi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, ishtirokchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar*

Darsliklar:

1. Sagdullayev A.S., Kostetskiy V.A. Qadimgi dunyo tarixi (6-sinf). – Toshkent: Yangiyo‘l poligraf servis, 2022.
2. Zamonov A. va boshq. O‘zbekiston tarixi (7-sinf). – Toshkent: Sharq, 2022.
3. Nasrullayev L. va boshq. Jahon tarixi (7-sinf). Respublika ta’lim markazi – Toshkent, 2022.
4. Zamonov A. va boshq. O‘zbekiston tarixi (8-sinf). – Toshkent, 2023.
5. Abdimo‘minov O. va boshq. Jahon tarixi (8-sinf). – Toshkent, 2024.
6. Ismatova N., Jo‘rayev U. O‘zbekiston tarixi (9-sinf). –Toshkent, 2024.
7. Ergashev Sh., Bobomatov T. Jahon tarixi (9-sinf). – Toshkent, 2024.
8. Tillaboyev S. va boshq. O‘zbekiston tarixi (10-sinf). Respublika ta’lim markazi. – Toshkent, 2022.
9. Ergashev Sh. va boshq. Jahon tarixi (10-sinf). Respublika ta’lim markazi – Toshkent, 2022.
10. Zamonov A. va boshq. O‘zbekiston tarixi (11-sinf), Respublika ta’lim markazi – Toshkent, 2025.
11. Ergashev Sh. va boshq. Jahon tarixi (11-sinf). Respublika ta’lim markazi – Toshkent, 2025.
12. Sagdullayev A., Kostetskiy V. Qadimgi dunyo tarixi (6-sinf), (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma). Respublika ta’lim markazi. – Toshkent, 2022.
13. Zamonov A. va boshq. O‘zbekiston tarixi (7-sinf). (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma). Respublika ta’lim markazi. – Toshkent, 2022.
14. A.Ismailov. va boshq. Jahon tarixi (7-sinf), (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma). Respublika ta’lim markazi. – Toshkent, 2022.
15. A. Zamonov. va boshq. O‘zbekiston tarixi (10-sinf). (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma (xrestomatiya)). Respublika ta’lim markazi. – Toshkent, 2022.
16. Xodjayev B. va boshq. Jahon tarixi (10-sinf). (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma). Respublika ta’lim markazi. – Toshkent, 2022.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Asqarov A. va boshq. O‘zbekiston tarixi. I qism. – Toshkent: Ma’naviyat, 2023.
2. Sagdullayev A.S. va boshq. O‘zbekiston tarixi. I kitob. – Toshkent: NIF MSH, 2024.
3. Zamonov A.T. va boshq. O‘zbekiston tarixi. I qism. – Toshkent: Bayoz, 2024.
4. Zamonov A.T. va boshq. O‘zbekiston tarixi. II qism. – Toshkent: Bayoz, 2024.
5. Zamonov A.T. O‘zbekiston tarixi. III qism. – Toshkent: Bayoz, 2023.
6. Zamonov A.T. Egamberdiyev.A. O‘zbekiston tarixi. IV qism. – Toshkent: Bayoz, 2022.
7. Klichev O. O‘zbekiston tarixi. V qism. – Toshkent: Bayoz, 2025.

8. Jo‘rayev N., Karimov.Sh. O‘zbekiston tarixi. II kitob – Toshkent: Sharq, 2011.
9. Kabirov A. Qadimgi sharq tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2016.
10. Semyonov V.F. O‘rta asrlar tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi. 1973.
11. Ergashev Sh. Jahon tarixi yangi davr. II qism. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
12. Ergashev Sh. Jahon tarixi eng yangi davr. III qism. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
13. Ergashev Sh. Jahon tarixi eng yangi davr. IV qism. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
14. Atlas, xarita (O‘zbekiston tarixi va Jahon tarixi yozuvsiz xaritasi bilan) 6–11-sinflar O‘zbekiston respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi.

VII. Pedagogik mahorat va kasb standartlari bo‘yicha manbalar

1. Mavlonova R.A. Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik. – Toshkent: Bayoz, 2025. – 504 b.
3. Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo, 2019. – 276 b.
4. Sh. Abdiraimov v.b. Ta’limda baholash va monitoring asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, TDYU nashriyoti, 2026. – 208 bet.
5. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisi kasb standarti.
6. Mansurov U. Tarixni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Ilm ziyo zakovat, 2023.

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.